

Tursunova Nozima Ilxomovna
 Buxoro davlat pedagogika instituti
 boshlang'ich ta'lim kafedrası
 o'qituvchisi
tursunovanzi1997@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA TA'LIMIDA TABIIY VA TURLI MATERIALLAR BILAN ISHLASH DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Annotasiya. Maqolada texnologiya fanining maqsadi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslari mehnatsevarlik, ijodkorlik, ekologik bilim berishda vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash. Texnologiya ta'limida tabiiy va turli materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish jarayoni bo'lib, turli tabiiy ashyolarga ishlov berish ulardan nimalar yasay olishi, tahlil qilish o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, texnologiya, tabiiy materiallar, turli materiallar, foydalanish, metodika.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ ПО РАБОТЕ С ПРИРОДНЫМИ И РАЗНООБРАЗНЫМИ МАТЕРИАЛАМИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. Цель науки технология в статье воспитание учащихся начальных классов в духе любви к Родине на уроках технологии трудолюбие, творчество, экологическое образование. Технологическое образование-это процесс организации уроков по работе с природными и разнообразными материалами, что из них может сделать обработка различных природных предметов, анализ формирование у учащихся навыков самостоятельного мышления.

Ключевые слова: начальный класс, технология, природные материалы, различные материалы, применение, методика.

METHODOLOGY FOR ORGANIZING CLASSES ON WORKING WITH NATURAL AND VARIOUS MATERIALS IN ELEMENTARY SCHOOL TECHNOLOGY EDUCATION

Annotation. The purpose of Technology Science in the article is to educate elementary school students in the spirit of love for the motherland in the provision of technology lessons hard work, creativity, environmental knowledge. In technology education, there is a process of organizing classes for working with natural and various materials, What processing of various natural materials can make from them, Analysis of the formation of independent thinking skills in students.

Key words: primary grade, technology, natural materials, various materials, use, methodology.

Kirish. O'zbekiston tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, metall va qotishmalar, plastmassalar, yog'ochlar va o'simliklarga boy o'lkadir. Respublikamizning bu tabiiy boyliklari sanoatda, turmushda foydalanadigan xomashyo bo'lishi bilan bir qatorda mehnat darslarida bajariladigan ishlar uchun kerakli material bo'lib ham xizmat qiladi. O'quvchilarda ilk yoshligidan boshlab ona tabiatga qiziqish va muhabbatni, undagi go'zalliklarni ko'ra bilishni tarbiyalash kerak. Tabiiy materiallar bilan ishlash ularni tabiatni kuzatishga majbur qiladi. Kuzatishlar esa badiiy ijodiy qobiliyatlarni, konstruktorlik g'oyasini, tushunchalarning aniqligini uyg'otadi. Turli tabiiy materiallar bilan ishlash, turlicha ishlov berilishini, turli asboblardan foydalanishni talab qiliadi va ularni ishlatish bilim, ko'nikma, malakalarini beradi. Turli tabiiy materiallarni to'plash o'qituvchi qo'ygan maqsadga bog'liq bo'ladi. O'quvchilar ko'rib chiqilgan va batafsil muhokama qilingan yoki o'zlari o'ylab topgan tasvir uchun material to'playdilar. Yoki aksincha, avval turli barglarni to'plab, keyin ishni bajarish tartibini aniqlashlari mumkin. Tabiiy materiallarni o'quvchilar dastlab o'qituvchi rahbarligida sayr vaqtida to'playdilar. Tabiiy materiallarni to'plash jarayonida o'quvchilar atrofda o'simliklar dunyosi, hashoratlar bilan tanishadilar, daraxtlar, gullar navlarini, nomlarini, shakllarini, tabiiy materiallarni qachon va qanday to'plash va qanday saqlash lozimligini bilib oladilar. Tabiatni qo'riqlash va unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uni asrash masalalariga alohida e'tibor berish har bir o'quvchining burchidir. Texnologiya darslarida tabiiy materiallardan: quritilgan

barglar, gullar, poliz ekinlari - qovun, tarvuz, qovoq urug'lari, mevalar - olcha, o'rik, shaftoli danaklari va shu kabilar, baliq tangalari va qanotlari, jo'xori va makkajo'xori so'talari, paxta chanog'i, yong'oq po'sti va shu kabilardan keng foydalaniladi.

Adabiyotlar tahlili. Texnologiya fanini rivojlanishiga dunyo olimlari juda katta hissa qo'shishgan. Jumladan, rus olimlaridan Y.N.Plotnikova boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining yo'l va usullari haqida izlanishlar olib brogan bo'lsa, N.M.Konisheva esa boshlang'ich sinf texnologiya darslarida boshlang'ich sinf texnologiya darslarini tashkil qilib o'tkazishda interfaol usullardan foydalanish mavzusida ilmiy izlanishlar olib brogan. T.Prisnikova esa modulli origami mavzusida ilmiy izlanishlar olib brogan.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda umummehnat ko'nikmalarini shakllantirish hamda texnologiya ta'limi muammolari R.Mavlonova, O'.Tolipov, Sh.Sharipov, S.Musaevalarning ishlarida o'z ifodasini topgan.

Tahlillar va natijalar: O'quvchilarni qo'l mehnatiga o'rgatishda o'quvchilarni ehtiboriga eng oddiy buyum o'yinchoqlarni, o'yinlarni, o'quv qurollarini tayyorlash, naqshlar chizib va qirqib olish, applekatsiya ishlari havola etiladi. Bundan tashqari bolalarda qo'l mehnatiga qiziqishni uyg'otish, mehnat darslarida hosil qilingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash uchun "Mohir qo'llar" to'garaklarida, kuni uzaytirilgan guruhlarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Texnologiya darslari jarayonida o'quvchilarni qo'l mehnatiga o'rgatish vazifalari haqida gapirilganda, o'quvchilarda mehnatsevarlik, mashuliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissinin tarbiyalashni tilga olmaslik mumkin emas. Shu bilan birgalikda qo'l mehnati odamlar tirikchiliginin moddiy va mahnaviy tahminotining vositasi, jamiyat taraqqiyotining eng muhim omilidir. Bolalarni aqliy o'stirishda ham qo'l mehnat ta'limining roli ko'p qirralidir. Mehnat o'quvchilarning bilim olishiga intilishlarini qo'zg'atuvchi vositagina emas, balki uning manbai hamdir. Texnologiya darslari jarayonida o'quvchilarni aqliy o'stirishda jismoniy va aqliy mehnatni almashtirib turish muhim ahamiyatga egadir. Biroq har qanday mehnat ham aqliy o'sishga yordam bermasligini unutmasligimiz kerak. Qo'l mehnati eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Texnologiya darslarida mehnatga psixologik tayyorgarlik, mehnat faoliyatining to'g'ri motivlari tarbiyalanadi, shaxsning har bir ongli mehnatkash uchun zarur bo'lgan sifatlari shakllanadi.

O'quvchilarni qo'l mehnatiga o'rgatishda darslarning jihozlanganligi o'z mehnati uchun shaxsiy ma'suliyatni, mehnat madaniyatini tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Agarda bolalar yomon jihozlangan sinfda, qo'pol, og'ir va yoshlariga nomunosib asboblardan shug'ullansalar ish natijalari ko'ngildagidek bo'lmaydi. Agarda bola har bir qadamda tartiblilikka, aniqlikka rioya qilish lozimligiga ishonch hosil qilinmasa, o'quvchilarni qo'l mehnatiga muhabbat ruhida tarbiyalashda muvaffaqiyatga erishish haqida gapirish qiyin. Boshlang'ich sinf badiiy mehnat darslarida tabiiy ashyolar bilan ishlashda qo'l mehnati asosiy jarayon bo'lib, bu ko'p mehnat talab qiladi. Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi jarayonida turli materiallar bilan ishlash o'quvchilarning estetik qobiliyatini rivojlantirish bilan birgalikda mantiqiy fikrlash va ijodiy faoliyatining tarkib topshi kabi sifatlari ham rivojlanib boradi. O'quvchilar turli tabiiy va chiqindi materiallardan nimalar yasash mumkinligi haqida tasavvur hosil qiladilar.

Turli va tabiiy ashyolarga ishlov berish ulardan nimalar yasay olishi, tahlil qilish bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini ham shakllantirib boradi, shuni ham alohida diqqat markazida tutish kerakki, ishlash jarayonida sanitariya -gigiyena qoidalariga, texnika xavfsizligiga rioya qilibgina qolmay, tejamkorlikka ham alohida e'tibor berishimiz zarur. Turli materiallar bilan ishlashda o'quvchilar o'zlari yasaydigan narsalarni estetik did bilan yondashib mustaqil fikrlashib yasaydilar.

Xulosa. Boshlang'ich sinf texnologiya darsi jarayonini takomillashtirish, o'qitishning yangi shakl hamda metodlarini tadbiq qilish, o'quvchilarda qiziqishni oshirishga, darslarning samaradorligini kuchaytirishga, bilish faolligini oshirishga katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda turli materiallar bilan ishlashga o'rgatish darslarini tashkil etish, o'quvchilardagi texnologiya darslarida egallagan bilim ko'nikmalarini mehnat jarayonida qo'llash imkonini beradi.

Texnologiya darslarida turli materiallardan aplikatsiyalar va mozaikalar yasashga o'rgatishda avval o'quvchilarni tabiat qo'yniga ekskursiyaga olib chikib atrofdagi mavjud turli materiallarni to'plashga o'rgatish keyin esa bu turli materiallarni qo'ritish va saqlashga o'rgatishni talab etadi. Bu esa atrof-muhitga e'tiborni, tabiatga muhabbatni, asrab-avaylashni o'rgatadi.

Tabiiy va turli materiallardan aplikatsiya va mozaika ishlari esa o'quvchilarni aplikatsiya va mozaika sa'natning oddiy elementlari bilan tanishib, ishlashga o'rgatadi. Shu sababli boshlang'ich sinf

o'quvchilarini yoshligidanoq turli texnologiya jarayonlariga tayyorlash ularni kelajakda yetuk bilimli mutaxassis va kasb-xunar egasi bo'lib yetishishlarida yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. THE GOALS AND OBJECTIVES OF INTEGRATED CLASSES IN ELEMENTARY SCHOOL TECHNOLOGY CLASSES AND THE IMPORTANCE OF INTERDISCIPLINARY COMMUNICATION ZD Rahmidinovna European International Journal of Pedagogics 4 (11), 50-55
2. THEORETICAL FOUNDATIONS OF ENSURING INTERDISCIPLINARY CONNECTION IN ELEMENTARY SCHOOL TECHNOLOGY CLASSES D Jo'rayeva, S Farmonova Modern Science and Research 2 (12), 392-396
3. The Role of Using Negation in Improving Information Competence in Students in Elementary School Technology Classes ZD Rahmidinovna European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 4
4. Improving the methodology of using information technologies in elementary mathematics classes D Jo'rayeva E3S Web of Conferences 2 2024
5. SCIENTIFIC THEORETICAL SIGNIFICANCE OF INNOVATION AND INTEGRATED EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY CLASS TECHNOLOGY LESSONS. JD Rahmidinovna European Journal of Research Development and Sustainability 2 2024
6. Boshlang 'ich sinf texnologiya darslarida fanlararo inkorporatsion bog 'liqlikni ta'minlashning nazariy asoslari DJ Raxmidinovna Confrencea 12 (12), 395-399 2 2023
7. ASHUVLAR ORQALI BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISIDAGI KASBIY KOMPETENTLIKNI JDRB davlat pedagogika MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI 603 MAKTAB TA'LIMISCHOOL EDUCATIONШКОЛЬНОЕ ... 2025
8. INKORPORATSION YONDASHUVLAR ORQALI BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH JD Rahmidinovna International Multidisciplinary Conference Hosted from Glasgow | England ... 2025
9. DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF A FUTURE PRIMARY TEACHER THROUGH INCORPORATED APPROACHES JD Rakhmidinovna NEW RENAISSANCE international scientific journal, 1341 2025
10. THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF FORMING PROFESSIONAL COMPETENCES IN TECHNOLOGY LESSONS OF PRIMARY CLASS STUDENTS JD Rakhmidinovna European International Journal of Pedagogics 4 (11), 158-161 2024
11. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA INKORPORATSIYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI JD Rahmidinovna Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar 2024
12. BOSHLANG'ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA FANLARARO INKORPARATSION BOG'LIQLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI JD Rahmidinovna Образование и инновационные исследования (2024 год № 2), 117 2024
13. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishdagi innovatsion texnologiyalarning tasnifi DR Jo'Rayeva, DR Jurayeva Science and Education 3 (5), 883-889 2022
14. DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF A FUTURE PRIMARY TEACHER THROUGH INCORPORATED APPROACHES JD Rakhmidinovna
15. [Methods of Conducting Technology Lessons with Modern Methods Based on the National Program](#) TN Ilhomovna// EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION 4 (4), 304-308
16. [METHODS AND MEANS OF FORMING SKILLS IN TECHNOLOGY](#) NTN Ilhomovna// Confrencea 12 (12), 232-235